

Yangi O'zbekiston ostonasi –
Maktabdan boshlanadi

Tong

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 39-40 (67303-09)
2020-yil 5-oktyabr

Prezident
Shavkat Mirziyoyevning
1-oktyabr – O'qituvchi
va murabbiylar kuniga
bag'ishlangan tantanali
marosimdagi nutqidan.



MASOFANI SAQLANG!

Yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

«BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG!» tanlovi g'oliblari aniqlandi

Aziz o'quvchilar, xabaringiz bor, joriy yil gazetamizning 19-20-sonida (15-iyun sanasi) tabiiy boyliklarimiz – ichimlik suvi, elektr-energiyasi va tabiiy gazdan oqilona foydalanish maqsadida «Boylikni bolalikdan asrang!» respublika tanlovini e'lon qilgan edik.

Yurtimizdagi pandemiya sharoiti ham bizning o'quvchilarimizni aslo cho'chitmadi, gazetani yaqin hamroh qilib, mutolaani to'xtatishmadi va ushbu tanlovda ham faol ishtirok etishga harakat qilishdi. Zero, tabiiy boyliklarimizni asrab-avaylash har bir vatanparvar, vijdonli kishining insoniylik burchidir. Buni yoshlikdanoq his qilgan aziz o'g'il-qizlarimizdan minnatdormiz. Aslida, ushbu tanlovda

ishtirok etgan har bir o'quvchi g'olib, ammo tanlov o'z nomi bilan tanlov-da! Unda eng, eng yaxshilari tanlab olinadi. Shu bois, hay'at a'zolari g'oliblarni aniqlab berishdi. Marhamat, g'oliblar bilan tanishing!

2-bet



Charos

Dono

Amirkbek

Sevinch

Fayzulloh

Sofiya



O'ZBEKISTON QURGAN MAKTAB TOJIKISTONDA OCHILDI

O'zbekiston Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi o'rtasida ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori va Vazirlar Mahkamasining tegishli farmoyishiga binoan, Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati, Spitamen tumanida 630 o'rinli umumta'lim maktabi O'zbekiston davlati tomonidan beg'araz qurib, jihozlab berildi.

Maktab o'quv jara-
yonlarini samarali tash-
kil qilish, fizika, kimyo,
astronomiya, biologiya va

chizmachilik fanlari bo'yi-
cha amaliy mashg'ulot-
lar o'tkazish barobarida,
o'g'il bolalarni metall va

yog'ochga ishlov berish,
qizlarni esa uy-ro'zg'or
ishlari, pazandachilik,
tikuvchilik kabi hunarlarga

o'rgatish ko'zda
tutilgan maxsus
loyiha asosida
qurildi.

Ushbu mak-
tabning ochilish
marosimi O'zbe-
kiston xalq ta'limi
vaziri Sherzod
Shermatov, To-
jikiston ta'lim so-
hasi mutasad-
dilari, o'qituvchi
va o'quvchilar,
OAV hamda keng
jamoatchilik va-
killari ishtirokida
o'tdi.

O'z muxbirimiz



«BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG!» tanlovi g'oliblari aniqlandi



RASMLAR

YO'NALISHI BO'YICHA:

1. Amirbek BAHODIROV, Buxoro shahar, 32-umum-
ta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi;

Ustozi – Malika HOJIYEVA, tasviriy san'at
o'qituvchisi.

2. Dono HAYITOVA, Buxoro shahar, 22-umum-
ta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi;

Ustozi – Barchinoy KARIMOVA, o'zbek tili fani
o'qituvchisi.

3. Sevinch FAZLIDDINOVA, Buxoro viloyati,
G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabining
2-sinf o'quvchisi;

Ustozi – Tursunoy HASANOVA, boshlang'ich
sinf o'qituvchisi.

MATN

YO'NALISHI BO'YICHA:

1. Sofiya RAHMONOVA, Andijon viloyati, Xo'ja-
obod tumanidagi 5-umumta'lim maktabi o'quvchisi;

Ustozi – Dilorom IMINJONOVA, boshlang'ich
sinf o'qituvchisi.

2. Fayzulloh RAVSHANXONOV, Toshkent viloyati,
Toshkent tumanidagi 9-umumta'lim maktabi o'quvchisi;

Ustozi – Umida KARIMOVA, ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi.

3. Charosxon RAVSHANXONOVA, Toshkent
viloyati, Toshkent tumanidagi 9-umumta'lim maktabi
o'quvchisi;

Ustozi – Mahfuza MUHITDINOVA, ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi.

...Fan bog'ining bog'bonisiz, muallim, Million dillar dostonisiz, muallim

Rapqon qishlog'imizda joylashgan «Ma'rifat markazi»da bo'lib o'tgan «Ustozlarni ulug'lagan yurt» nomli bayram tadbirida men ana shu she'rni yoddan aytib, ishtirok etdim.

Tadbirda 26-umumta'lim mak-
tabida uzoq yillar o'quvchilarga
ta'lim-tarbiya bergan faxrli ustozlar
– ona tili va adabiyot fani o'qituv-
chisi Mashrabxon Haqnazarova,
boshlang'ich sinf o'qituvchisi



Karomatxon Marayimova taklif
qilindi. Faxriy ustozlar o'quvchilik

davridagi, ustozlik faoliyatidagi
qiziqarli, maroqli xotiralarni so'zlab

berishdi. Tuman axborot-resurs
markazi xodimlari Nasibaxon
Nazarova, Ra'noxon Kenjayeva
ham ustozlarni bayram bilan
qutlashdi.

She'r aytib, qo'shiq kuylab,
raqsga tushganimizda ustozlar-
ning ko'zlarida quvonch yoshla-
rini ko'rdim. Ustozlar davlatimiz
tomonidan yaratilgan sharoitga
javoban faqat a'lo baholarga
o'qing, deya tilak bildirishdi. Men
u yerdan qaytar ekanman, ustoz-
larimga bo'lgan mehrim yanada
ortdi. Boringizga shukur, aziz,
qalbidaryo mehribon va jonkuyar
ustozlar! Ishonchingizni, albatta,
oqlaymiz.

Muxlisaxon SIROJIDDINOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq
tumanidagi 3-DIUMning 6-«B»
sinf o'quvchisi

Men «Tong yulduzi» gazetasining doimiy muxlisiman. O'quvchilarim bilan har yili gazetaga yillik obuna bo'lamiz. Ijodkor o'quvchilarim ham gazetaning har bir sonini intiqlik bilan kutishadi. Gazetada e'lon qilinayotgan turli tanlovlarda o'z ijodiy ishlari bilan qatnashib, g'olib bo'lishyapti. Tahririyat xodimlari esa viloyatimizga kelib, g'oliblarni sovg'alar bilan taqdirlashayotganini eshitgan o'quvchilarimning gazetaga qiziqishlari kun sayin ortib boryapti.

Men ham o'quvchilarim kabi uning har bir sahifasini diqqat bilan kuzatib boraman. «Bir kuni darsda...» rukni ostida berilayotgan maqolalarni katta qiziqish bilan o'qiyman. Pedagoglik faoliyatimda bo'lib o'tgan ba'zi bir qiziqarli voqealarni qog'ozga tushirib, ushbu sahifaga yo'llashga qaror qildim. Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda bir videoga ko'zim tushib qoldi. Ota o'z farzandini ovqatlantiryapti. Qo'lida qoshiq, ko'zi esa qo'l telefonida. Bola ota uzatayotgan qoshiqqa bo'ynini cho'zib, qiynalib ovqatlanyapti...

Afsuski, hozirda ko'pgina ota-onalar videodagi otaga o'xshab bormoqda.

Boshlang'ich sinflarimdan birida psixologimiz Hamida Turdialiyeva psixologik test o'tkazdi. O'quvchilarimga «Mening oilam» mavzusida rasm chizish topshirig'ini berdi. O'quvchilar chizgan rasmlarni yig'ib olgach menga har bir rasmni izohlab berdi. Keyingi darsda endi rasmlar haqidagi fikrimni ayta boshlagan edim hamki, sinf eshigi taqilladi. Chiqsam, bir erkak kishi turibdi. «Kechirasiz, o'g'lim 11-sinfda o'qiydi. Ota-onalar yig'ilishi edi. Lekin sinfini va o'qituvchisini bilmayman», dedi. «Sinf rahbarining ism-sharifini bilasizmi», desam, uniyam bilmadi. Men navbatchi o'qituvchiga uchrashishni maslahat berdim. Va afsuslandim, farzandining na sinfini bilmaydigan, na ustozini tanimaydigan otalar ham bo'larkanmi, deb. Chunki men o'quvchilarimga birinchi sinfga qadam qo'ygan paytlaridayoq o'zimning ism-sharifimni yozdrib qo'yaman-da. Qachonki ota-onalar farzandining o'qishi, xatti-harakati bilan qiziqsa, ismim, familiyamni so'rab, menga uchrashib ketaverishadi-da.

Bir kuni darsda...

Darvoqe, o'quvchilarim chizgan rasmlardagi eng e'tiborli jihat nima ekanligi bilan qiziqayotgan bo'lsangiz kerak-a? O'quvchilarning hammasini ota-onasi bo'lsa-da, ba'zilar ularning rasmini chizishni xohlamagan, chizgan bo'lsa ham, qog'ozning tepasiga yoki bir burchagiga chizgan. Nega, deysizmi? Buning sababini o'quvchilardan so'raganimda, ular ota-onasining ularga uy vazifalarini tayyorlashga umuman ko'maklashmasliklarini, ba'zilar hatto maktabda nimalar bilan mashg'ul ekanliklarini ham so'rashmasligini aytishdi. Mana sizga videodagi holat. Shundan so'ng yig'ilish o'tkazib, ota-onalarga o'quvchilarimning ular haqidagi fikrlarini, e'tirozlarini umumiy tarzda tushuntirib yetkazganman. O'sha sinfim hozir eng faol sinflardan biriga aylangan.

Feruza NIZOMIDDINOVA,
Farg'ona viloyati,
Beshariq tumanidagi
26-umumta'lim
maktabining
boshlang'ich sinf
o'qituvchisi



Qishning sovuq kunlaridan biri. Eski, pastqamgina sinfxona o'quvchilar bilan gavjum edi. Ular ustoz kelishini intiq kutishardi. Mana, nihoyat rangi uniqqan palto kiygan, ko'zoynakli kekxa adabiyot muallimi chaqqon qadam tashlagan xonaga kirib keldi.

U eshik oldida biroz turib qoldi, so'ng sinfxona sovuqligini anglab, doimgidek pechka yoniga shoshildi. O'quvchilar orasida o'tirgan Anvar muallimni xatti-harakatini unsiz kuzatib turardi. Sobir muallim cho'ntagidan gugurt chiqarib, pechkaga o't yoqdi. Pechka lop etib yondi-yu, hayal o'tmay sinfxonada gumburlagan ovoz chiqdi. O'quvchilar sarosimada, Sobir muallimni esa rangi dokadek oqarib ketgan, ko'zoynagi sirg'alib tushgan, devorga suyangancha bir nuqtada qotib turardi. Ko'p o'tmay voqea butun maktabga tarqaldi, o'quvchilarga qattiq tanbeh berildi. Biroq, hech kim bu ishda Anvarning qo'li borligini bilmasdi. Axir u hammadan barvaqt kelib, portlovchi dorilarni qog'ozga o'rab pechkaga joylashtirib, so'ng o'zi dunyodan bexabardek

MENI KECHIRING, USTOZ!

(Hikoya)



darsga kechikibroq keldi. Ertasi kuni sinf rahbari – Sobir muallimning tobi qochib, bir necha kun darsga kelolmadi. Buni eshitib, qilg'iliqni qilib qo'ygan Anvarning vijdoni azoblandi. Oradan bir hafta o'tsa hamki, kekxa muallimning o'sha kungi ayanchli ahvoli ko'z oldidan ketmasdi. U katta xato qilganini qalban his etdi. Negaki, Sobir muallim bolalarni jonidan ortiq suyar va ularga maroq bilan dars berar edi. Ayniqsa, dars oxirida bolalarga cho'ntagidan

har xil shirinliklar chiqarib, ularni siylashini ko'rsangiz... U bolalarga sira qattiq tanbeh bermas, jahli chiqsa

hamki, «Ha, senmi zumrasha», deb qo'yardi, xolos. Anvar shularni o'ylarkan, qalbida mislsiz og'riq sezdi. Nihoyat, dushanba kuni Sobir muallim yana darsga keldi. U darsni boshlagach, Erkin Vohidovning «Kamtarlik» she'rini doskaga yozdi va o'quvchilardan daftarga ko'chirib olishini so'radi. Faqat Anvargina partadan ko'z uzmasdan qimir etmay turardi. Bu holat kekxa muallimni tashvishlantirdi. U Anvarning yaqiniga borib, «Senga nima bo'ldi, bolam, nega yozmayapsan yoki tobing yo'qmi?» deya so'radi. Yuragi to'lishib turgan Anvarning oqqan ko'z yoshlari daftariga tomtdi va o'rnidan turib, xonadan otilib chiqdi. Ustoz hayron bo'lib, uning daftariga qaradi va ko'zi sahifadagi «Ustoz, iloji bo'lsa, meni kechiring!..» degan yozuvga tushdi.

Tamara RASHIDOVA,
Samarqand viloyati, Tayloq tumanidagi
8-umumta'lim maktabining ingliz tili
o'qituvchisi

Kunlardan bir kun u menga, kel, senga dunyodagi eng to'kis baxtga yetkazuvchi ajib yo'lni ko'rsataman, dedi. Shunda qalbimda o'zgacha his uyg'ondi. Bu yo'l har qanday qulfnig kaliti bo'lmish mutolaa ekanligini sezib turardim. Taxminim to'g'ri chiqdi, quvonib ketdim, hislarim jo'sh ura boshladi, birdan ko'zlarim beixtiyor yoshlandi. Sezdimki, bu oshufta qalbim kitobga tashna ekan.

Shu payt bir yoqimsiz tovush e'tiborimni tortdi, so'ngra dilimni xufton qilib, rutubat olamiga otdi. Bu nima ekan, deysizmi? Nima ekanligini bilmaganimiz yaxshiroq edi. Biz sevgan bog'dagi ko'l oldida bizga tengqur bir qiz bor ovozi bilan

KITOB — QALB DURI

Mening bir ajoyib do'stim bor edi. Har safar unga qaraganimda, xuddi o'zimni osmondagidek his qilardim. Uni o'zimni hurmat qilgandek hurmat qilib, qadrlardim...

dunyoni larzaga solib, kitob atalmish ne'matlarni maydalardi. Asta uning yoniga borib, bu zalolat nedan, deb so'radim. U esa bulardan bir foyda yo'qligini ta'kidlab, qog'oz parchalarini xuddi ko'nglimdan yulgandek, ko'lga uloqtirardi. Men jim tura olmadim, unga bunday qilish noto'g'ri ekanligini

tushuntirishga urindim. Uni sevimli ijod maskanimizga taklif qildim. Qiz rozi bo'ldi va bizga: «Men kitoblarni qadrlagan paytimda meni hech kim tinglamadi, ijodimni namoyish etishimni xohlashmadi», dedi. Men unga: «Kitob qalbimizning mislsiz duri. Unga oshuftalik o'zimizga ma'lum bo'lsa

va uni qalbimizga joylaganimizni bag'rimiz bilsa bas, boshqasi hech nima emas. Siz shunday zot bo'lingki, har bir so'zingizni eshitishganda atrofingizdagilar qalbi junbushga kelsin, sizga o'xshashga harakat qilishsin, siz bilan suhbatlashishga, nurli yuzingizni ko'rishga intiq bo'lishsin», dedim. So'ngra: «Keling, birgalikda marvarid-u gavharlarni varaqlaymiz», deya, kitoblarnimizni bir-birimizga tortiq qildik, kitoblarning sehrli olamiga yo'l oldik.

**Ruxshona RAYIMBOYEVA,
Xorazm viloyati, Urganch
shahridagi 29-umumta'lim
maktabining 9-sinf o'quvchisi**

NOYOB NE'MAT

Qaynoq hayot sari dadil qadam tashlab kirib kelayotgan har bir yosh avlodning har tomonlama bilimli, salohiyatli shaxs kamoloti uchun ezgu qalb egalari bo'lgan ulug' ustoz va murabbiylarimizning o'rni beqiyos. Ular koni savob ishga bel bog'lab, hikmatlar ummonidan dur-u javohirlar yig'ib, umrini bezab, o'zidan yaxshi nom qoldrganlarga ehtiromimiz yuksakdir.

Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumani 2-umumta'lim maktabi 1989-yilda tashkil topgan bo'lib bu ilm dargohida 30 yillik faoliyati bilan yoshlarga ta'lim-tarbiya berib kelayotgan sharafli kasb fidoyilari bugun el ardog'ida.

Hadis-u sharifda «Bir soat ilm o'rganmoq, bir tun uyg'onib ibodat qilmoqdan xayrlidir», degan misralarda keng ma'no mujassam. Ma'naviyat o'chog'i fidoyilari noyob salohiyati bilan ilm-fan

sirlarini yangi-yangi qirralarini ochib, ilm-u urfon ummonidan dur ma'nolarini terib hayotiy tajribasi, donishmandlik fazilati bilan o'zlarida hosil bo'lgan yaxshi amallarni yoshlarga o'rgatib munosib vorislar, shogirdlar yetishtirmoqdalar.

Maktabimizning sobiq rahbari Ahmad Muhammadiyev «Xalq maorifi a'lochisi» oliy toifali matematika o'qituvchisi (1935–2020) oxiratlari obod bo'lsin, Murodullo Mirzayev. A'zamjon Qosimov (1951–



2020) oxiratlari obod bo'lsin, Atam Safarov, Sa'dullo Hakimov, O'lmas Qosimov, fan bog'ining bog'bonlari – Shuhrat Qiyomiddinov, Farog'at Sohibova, Hamida Hakimova «Xalq maorifi alochisi», Gulchehra Asqarova «Xalq maorifi a'lochisi», Oliy Muhammadiyeva, Meliqul Shermatov, Abdimo'min Berdiyev, Mahfuza To'rayeva «Mehnat shuhrati» medali sohibasi kabi fidoyi ustozlar 1500 ga yaqin yosh avlodga

ziyo tarqatmoqdalar.

Ular Alloh in'om etgan iste'dodni, kuch-g'ayratni bir umr betinim, favqulodda jasoratli mehnatlari bilan rivoj topdirib, unga muttasil sayqal berib, ayni chog'da, o'z nomlarini ham maktabshunoslik tarixiga muhrlaganlar. Ulug' ustozlar butun umrlari ranj-u mehnat yaratish mashaqqati, shijoati, Vatanga sadoqati yuksakligi bilan kechganligidan ular bugun yurtimizda qadr va e'zozda. Bunday

oliyanob insonlar hurmatini bajo etib, xayrli faoliyatiga rag'bat ko'rsatishga nima yetsin?! Katta avlod kishilari bamisoli mevali bog'. Uning totli mevasi esa farzandlarimiz uchun obihayotdek noyob ne'matdir.

**Nodira QURBONOVA,
Surxondaryo viloyati,
Sariosiyo tumanidagi
2-umumta'lim maktabining
oliy toifali ona tili, adabiyot
fani o'qituvchisi**

MATEMATIKA — BILIMLAR TILSIMI

Darhaqiqat, matematika haqida gap ketganda, ko'z o'ngimda bu fanning mislsiz imkoniyatlari gavdalanadi, sehrli, tilsimli dunyoga tushib qolgandek bo'laman.

Bolaligimdan matematikaga mehr qo'yib ulg'aydim. Boshlang'ich sinfdaligimdayoq suhbatdoshimning tug'ilgan yili orqali uning necha yoshdaligi-yu oyoq o'lchamini bir zumda



hisoblab chiqarardim. Sonlar ko'paytmasini bar-moqlar orqali hisoblash ham men uchun qiyin emasdi. Mendagi bunday iqtidor matematiklar

oilasida dunyoga kelganimdan bo'lsa kerak.

Ota-onam – Muhammadjon va Mavludaxon aniq fanlarga kuchli mehr qo'ygan fidoyi ustozlardir. Uch akam va men ham ular izidan borib, pedagogika sohasini tanladik. Dadam o'z kasbining yetuk mutaxassisi, shu kunga qadar 600 nafarga yaqin shogirdlarining oliy o'quv yurtiga kirishiga, hayotda o'z yo'llarini topishiga katta hissa qo'shdi. Ularning dono o'g'itlari kasbiy faoliyatimizda bizning shiorimizga aylangan:

- hech qachon moddiy manfaatni ma'naviyatdan ustun qo'yma, bu narsa shogirdlar oldida bebro' va beqadr bo'lishga olib keladi;
- fanini va o'quvchilarini seva olgan o'qituvchi qadrlanadi, hurmatlanadi, yutuqlarga erishadi;
- tanlagan kasbingni chuqur o'rganishga va o'quvchilarga o'rgatishga dangasalik qilmasang, kasbing senga charchoq emas, zavq bag'ishlaydi;
- haqiqiy pedagog o'quvchisining ko'ziga qarab mavzuni qay darajada o'zlashtirganini bilib oladi;
- kasbing senga zavq berolmasa, u kasbdan voz kech! Biz farzandlar ish faoliyatimizda har doim otamizning talabchan nigohini his qilib turamiz. Dadam, nafaqat oilada, balki, mehnat jamoasida ham har bir gapini o'ylab, ma'noli so'zlaydigan,

yumshoq fe'li, davralarga kayfiyat ulashadigan xushchaqchaq inson. Men shunday insonning farzandi ekanligimdan doim faxrlanaman!

Muhtaram Prezidentimiz matematika faniga bo'lgan e'tibori va Qaroridan nafaqat sulolamiz, balki barcha matematika shaydolari, fidoyi va jonkuyarlari, ushbu fan rivojiga umrini tikkan ilm ahllarining boshi osmonga yetdi. Ayniqsa, qarordagi matematika faniga ixtisoslashtirilgan maktablarning shaharlardagina emas, balki tuman markazlarida ham tashkil etilishi yurtimizning eng chekka hududlaridagi matematik iqtidorga ega noyob iste'dodlarni kashf etadi, ularga o'z qobiliyatlarini namoyish etishga yo'l ochadi, desam, mubolag'a bo'lmaydi.

Prezidentimiz tomonidan ko'rsatilgan e'tiborga javoban cheksiz iftixor hamda g'urur bilan yana ham mas'uliyatli, shijoatli bo'lishga, izlanishga intilamiz! Matematika bilimlar tilsimi ekan, O'zbekiston yoshlari bu kalit bilan barcha fanlarning eshiklarini ochib, olamshumul kashfiyotlar ila dunyo tamadduniga o'z hissalarini qo'shishlariga ishonamiz!

**Dilraboxxon RAHIMBERDIYEVA,
Andijon shahar, Muhammad Yusuf
nomli ijod maktabining matematika fani
o'qituvchisi**

OBRO'LI KASB EGASI

Qo'limizga ilk bor qalam tutqazib, o'qishni, yozishni o'rgatgan, tafakkurimizni charxlagan, qalbimizga ezgulik urug'ini qadagan ustozlarimizni har qancha ulug'lasak arziydi.

O'z kasbining fidoyisi, jonkuyari bo'lgan ustozlar bizga mehr bilan bilim berishadi, hayot yo'llarimizda yo'l boshchi bo'lishadi. Birgina misol, ustozimiz O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi «Tong yulduzi»ning Bosh muharriri Feruza Adilova o'zining mehribonligi, o'rinni maslahatlari bilan meni buyuk yurtning buyuk farzandi bo'lishga, ilmi, ma'rifatli bo'lishga undab kelmoqda. Men va men kabi bolalar va o'smirlarning ma'naviy dunyosini boyitishga hissa qo'shmoqda. O'qituvchim Barno Mirzayeva hamda onajonim esa ijod olamiga yetaklashdi. Ustoz hamisha yutuqlarim bilan qiziqadi, ijod namunalarimni o'qib, fikr bildiradi, izlanishlarimdan mamnun bo'ladi. Mustaqil ijod qilishimga, mustaqil fikrlashimga yordam beradi. Shu o'rinda Mixail Svetlovning quyidagi fikrlari yodimga tushadi: «Chinakam ustoz senga hamisha tarbiya beradigan kishi emas, mustaqil bo'lishingga yordam beradigan kishidir». Bunday jonkuyar ustozlarimiz yurtimizda juda ko'p. Kamchilik va xatolarimizni o'z vaqtida anglab yetishimizga ko'mak beradigan, bizga doimo to'g'ri yo'lni ko'rsatadigan mo'tabar inson ham ustozlarimizdir. Biz uchun ba'zan ota-onamizdan-da ko'p qayg'uradigan ham ular. Ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini yosh avlod tarbiyasiga baxsh

etadigan bunday o'qituvchi va murabbiylar mehnati, jasorati yuksak baholarga munosibdir.

Xalqimizning eng katta boyligini – farzandlari, jondan aziz dilbandlari taqdiri, demakki, O'zbekiston istiqboli o'qituvchi va murabbiylarga ishonib topshirgan. Bu mas'uliyatli vazifani vijdonan ado etib kelayotgan fidoyi insonlar – kelajak bunyodkoriga har qancha taxsin, tasannolar aytsak arziydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti fidoyi o'qituvchi va murabbiylarga hurmat bajo keltirib, chin dildan ta'zim qilamiz, dedilar.

«Nuroni» gazetasi bo'lim muharriri Sayyora opa Qodirovani o'zimning ustozim, deb bilaman. Chunki harchand ishlari ko'p bo'lsa ham, band bo'lsalar ham men uchun fursat ajratadilar, o'zining iliq fikrlari bilan dunyoqarashimni shakllantiradilar. Ham ustozim, ham opam bo'ladilar.

Fursatdan foydalanib, ta'lim-tarbiya sohasida mehnat qilayotgan barcha o'qituvchi va murabbiylarni kuni kecha nishonlaganimiz – kasb bayramlari bilan chin qalbidan tabriklayman. Ularga ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Salohiddinjon SAYFIYEV,
Samarqand viloyati, Urgut tumanidagi
118-umumta'lim maktabining
11-sinf o'quvchisi



BA'ZAN KICKINTOYLARNING CHUG'UR-CHUG'URIDAN NOLIRDIK-A...

Maktab – muqaddas dargoh. Uning quchog'i o'quvchilar bilan fayzli ekanligiga mana shu sinovli kunlarda yana bir bor amin bo'ldik.



Tan olishimiz kerak, kichkintoylarning chug'ur-chug'uri, xarxashalari gohida asabimizni buzardi, nolib ham qo'yardik. Endi esa o'sha kunlarni sog'inyapmiz. Ustozlar bag'ri o'quvchilari bilan to'ladi. O'quvchilarning jajji qo'lchalaridan tutib, hayotga qadam tashlashga o'rgatgan biz ustozlar uchun vaqtinchalik bo'lsa-da, ayriliq damlari og'ir kechyapti. Mayli, bu sinovli kunlar ham

o'tib ketar, deya o'zimga tasalli beraman.

Kuni kecha ming bir hayajon bilan yangi o'quv yilini boshladik, ota-onalar qalbida quvonch, jajji bolajonlar ko'zida umid uchqunlari porlaydi. Sog'inch tuyg'usi yuragimni ezib yuborganidanmi, bolajonlar tomon talpindim. Ularni bag'rimga bosar ekanman, murg'ak-kina yurakchalar urishidan kasbimga bo'lgan mehrim yanada ortdi. Ota-onalarning ko'magi bilan sinfimizni zamon talablariga mos jihozladim, o'quvchilarimning o'qib-o'rganishi uchun nimaiki kerak bo'lsa, qo'limdan kelgancha ularni muhayyo qilishga harakat qildim. Faoliyatimda ilk marotaba o'zim dars beradigan 1-«B» sinfini matematika faniga ixtisoslashtirilgan litsey sinfiga aylantirdim. Direktorning qo'llab-quvvatlashi, hamkasblarimning ma'naviy daldasi bilan ilk qadamni tashladim. Umid qilamanki, bu qadamim o'quvchilarim uchun ham, maktabim uchun ham qutlug' keladi.

Kelajakning nurli va istiqbolli bo'lishi biz ustozlarga bog'liq. Dunyodagi dong'i ketgan maktablarni kuza-tarkanman, bir fikr keladi xayolimga, nahotki bizning o'quvchilar ulardan kam bo'lsa, yo'q, aslo yo'q. Axir dunyo tamadduniga tamal toshini qo'ygan bobokalonlarimiz bor. Farzandlarimiz ham ularga munosib izdosh bo'ladi. Mana shunday ezgu niyatlar bilan yangi o'quv yilini boshlarkanman, 33 nafar jajji o'quvchilarimning yaxshi o'qishi, sog'lom bo'lishi, ota-onasining ishonchini oqlashi uchun bundan-da yaxshi sharoitlar yaratishga harakat qilaman. Kelajakda ularning ilm cho'qqilarini egallashi uchun biz ustozlar astoydil harakat qilishimiz lozim. Yurtboshimiz tashabbusi bilan respublikamizdagi barcha maktablarning yangi qiyofa kasb etayotgani biz fidoyi ustozlarni yanada mas'uliyat bilan ishlashga undaydi. O'quvchilarim – mening qanotlarim, ular qanchalar baland, bexavotir parvoz qilishsa, shunchalik quvonaman.

Yoqut ABDULLAYEVA,
poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 267-umumta'lim
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi



Aziz o'quvchilar, xabaringiz bor, 2019-yilda jurnalistlar va bloggerlar uchun O'zbekiston jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi, Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologiya markazi hamda Yevroittifoq tashkilotining moliyaviy ko'magi yordamida tashkil etilgan «Media CAMP» loyihasi doirasida «O'zbekistonda suvdan foydalanish masalalarining ommaviy axborot vositalarida eng yaxshi yoritilishi» mavzusiga bag'ishlangan Xalqaro tanlov e'lon qilingan edi.

FAOL MUXBIRIMIZ DIPLOM OLDI

Mazkur tanlov shartlariga ko'ra, suvni tejashga bag'ishlangan barcha formatdagi jurnalistik va bloggerlik materiallari 4 nominatsiya yo'nalishlari bo'yicha qabul qilinib baholandi.

Joriy yilning 19-avgust kuni pandemiya sharoiti sababli tanlov g'oliblarini e'lon qilish va ularni mukofotlashga bag'ishlangan tadbir ZOOM platformasida onlayn tarzda o'tkazildi. To'rtta yo'nalish bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgan jurnalist va bloggerlar diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar. Shuningdek, 10 nafar ishtirokchi rag'batlantiruvchi mukofotlar bilan taqdirlandilar.

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi «Tong yulduzi»ning 2019-yil 8-iyuldagi sonida e'lon qilingan «Ekspeditsiya yo'lga chiqdi» hamda

26-avgustda e'lon qilingan «Suvni tejovchi moslama haqida bilasizmi?» maqolalari tanlov hay'ati a'zolarining alohida e'tirofiga sazovor bo'ldi. Bu maqolalar muallifi Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 314-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Zeboxon Saidova rag'batlantiruvchi mukofot, diplom hamda 80 mingta so'z va iboradan tashkil topgan o'zbekcha-inglizcha, inglizcha-o'zbekcha lug'at kitobi bilan taqdirlandi.

Mukofotlar tashkilotchilar tomonidan g'oliblarning yashash manziliga yetkazib berildi.

Tahririyatimiz nomidan gazetamizning faol mualliflaridan biri bo'lgan Zeboxon Saidovani ushbu e'tirof bilan muborakbod etib, yosh qalamkash qizimizga ijodiy barkamollik tilaymiz!

WORD SEARCH PUZZLE

P	R	E	H	C	A	E	T	E
W	O	R	K	S	H	E	E	T
S	E	P	T	E	M	B	E	R
L	T	P	U	W	A	D	N	L
E	C	O	E	G	V	I	N	O
S	L	K	Y	N	H	T	R	O
S	A	N	O	I	C	K	G	H
O	S	P	N	O	U	I	D	C
N	S	O	W	E	B	R	L	S

September
Class

School
Teacher

Pencil
Lesson

Worksheet
Book

Buildings and Places



DAYS OF THE WEEK

Answer the following questions:

1. What day is it today?
2. What day will it be tomorrow?
3. What day was it yesterday?
4. What day comes before Wednesday?
5. What day comes after Friday?
6. What's your favourite day?



CLASSROOM LANGUAGE

The words in the sentences have been scrambled. On the lines provided below each sentence, rewrite the words of the sentence in the correct order.



1. up stand _____
2. may in I come? _____
3. go to the board may I _____
4. in you say «...» English how do _____
5. borrow your pencil may I? _____
6. book your open _____
7. your write your name _____
8. down sit _____
9. the board clean, please _____
10. the text read _____
11. does ruler mean what _____
12. remember I can't _____
13. pairs in work _____
14. your book close _____

Bank, apartment, airport, home, grocery store, mall, hospital, movie theatre, office, parking lot, gas station, pharmacy, store, post office, pet store, school, toy store, restaurant

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

«MOTHER dear,» said a little mouse one day, «I think the people in our house must be very kind; don't you? They leave such nice things for us in the larder.»

There was a twinkle in the mother's eye as she replied,

«Well, my child, no doubt they are very well in their way, but I don't think they are quite as fond of us as you seem to think. Now remember, Greywhiskers, I have absolutely forbidden you to put your nose above the ground unless I am with you, for kind as the people are, I shouldn't be at all surprised if they tried to catch you.»

Greywhiskers twitched his tail with scorn; he was quite sure he knew how to take care of himself, and he didn't mean to trot meekly after his mother's tail all his life. So as soon as she had curled herself up for an afternoon nap he stole away, and scampered across the pantry shelves.

Ah! here was something particularly good to-day. A large iced cake stood far back upon the shelf, and Greywhiskers licked his lips as he sniffed it. Across the top of the cake there were words written in pink sugar; but as Greywhiskers could not read, he did not know that he was nibbling at little Miss Ethel's birthday cake. But he did feel a little guilty when he heard his mother calling. Off he ran, and was back in the nest again by the time his mother had finished rubbing her eyes after

her nap.

She took Greywhiskers up to the pantry then, and when she saw the hole in the cake she seemed a little annoyed.

never guessed that it was her own little son.

The next day the naughty little mouse again popped up to the pantry when his mother was asleep; but at first he could find nothing at all to eat, though there was a most delicious smell of toasted cheese.

Presently he found a dear little wooden house, and there hung the cheese, just inside it.

In ran Greywhiskers, but, oh! «click» went the little wooden house, and mousie was caught fast in a trap.

When the morning came, the cook, who had set the trap, lifted it from the shelf, and then called a pretty little girl to come and see the thief who had eaten her cake.

«What are you going to do with him?» asked Ethel.

«Why, drown him, my dear, to be sure.»

The tears came into the little girl's pretty blue eyes.

«You didn't know it was stealing, did you, mousie dear?» she said.

«No,» squeaked Greywhiskers sadly; «indeed I didn't.»

Cook's back was turned for a moment, and in that moment tender-hearted little Ethel lifted the lid of the trap, and out popped mousie.

Oh! how quickly he ran home to his mother, and how she comforted and petted him until he began to forget his fright; and then she made him promise never to disobey her again, and you may be sure he never did.

THE LITTLE THIEF IN THE PANTRY



«Some mouse has evidently been here before us,» she said, but of course she

made him promise never to disobey her again, and you may be sure he never did.

Education is the passport to the future, for tomorrow belongs to those who prepare for it today.



MALCOLM

Education is the most powerful weapon which you can use to change the world.


Nelson MANDELA



Educating the mind without educating the heart is no education at all.

The root of education are bitter, but the fruit is sweet.

ARISTOTLE



EDUCATION QUOTES


Investment knowledge pays the best interest.

Benjamin FRANKLIN




Intelligence plus character that is the goal of true education.

Martin LUTHER KING




To penetrate and dissipate these clouds of darkness, the general mind must be strengthened by education.

Thomas JEFFERSON




Education is what remains after one has forgotten everything he learned in school.

Albert EINSTEIN




Education is the ability to listen to almost anything without losing your temper or self-confidence.

Robert FROST



prepared by Tulkin PARDAYEV


DAVOMI: BOSHI AVVALGI SONDA

SARGUZASHTLAR
DAVOM ETADI


9



10





11




12






13



14



15



16

«REJA»LI TADBIRLAR

yoshlarimizning fikrlash doirasini, dunyoqarashini toraytirib boryapti

Qaysiki davlatning qay darajada buyuk va kelajagi porloq bo'lishini bilmoqchi bo'lsak, avvalo, u yerda ta'lim tizimiga hamda yoshlarga bo'lgan munosabatga e'tiborimizni qaratmog'imiz darkor.

Shu o'rinda o'zim guvohi va bevosita ishtirokchisi bo'lgan bir voqea haqida so'zlasam. Olimpiadaning tuman bosqichi bo'lib o'tdi va bunda faxrli o'rin olganlarni «ko'rgazma» uchun litsey binosiga taklif qilishdi. Albatta, yoshlarning bunday tadbirlarda qatnashishi yaxshi, ammo bir narsaga hayron qoldim. Qiziquvchanligim sabab, tadbir tashkilotchilaridan biriga: «Men ham o'zimni

qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilmoqchi edim», dedim. Javobini eshitib, lol bo'ldim: «Tadbirning har bir jarayoni oldindan rejalashtirilgan, sizning qanday savol berishingiz biz uchun qorong'u. Shuning uchun, 1-2 kun oldin biz bilan maslahatlashishingiz kerak edi. Endi kech».

Tavba, tadbir bo'lishini bugun eshitdim-ku, qanaqasiga 1-2 kun avval muloha-

zalarimni bildiramani?! Jahl ustida «Tadbirni boshdan oyoq kassetaga yoki diskka yozdirib, bu yerda fonogramma qo'yavermabsizlar-da», deyishimga bir bahya qoldi. Mana shunday «reja»li tadbirlar yoshlarimizning fikrlash doirasini, dunyoqarashini toraytirib boryapti. Oldindan tuzib, tayyorlanib qo'yilgan yig'ilishda iqtidorli yoshlardan «ko'rgazma», «bezak» sifatida

foydalanish adolatdanmikan? Bu kabi tadbirlarda «ko'rgazma» bo'lgandan ko'ra, 2-3 bet kitob o'qish afzal emasmi? Zero, kelajak poydevori bugundan boshlanishini unutmaylik!

Laylo OLIMOVA,
Qoraqalpog'iston
Respublikasi,
Amudaryo tumani

O'qituvchi va murabbiylar kuni yurimizda keng nishonlandi. Bayram arafasida Prezidentimiz nutq so'zlab, ta'lim sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar, o'qituvchilar uchun yaratilayotgan sharoitlar, yosh avlodning puxta bilim olishida ustozlarning roli haqida to'xtaldilar. Har bir yutug'imiz, muvaffaqiyatimiz uchun o'qituvchilardan minnatdor bo'lishimiz kerakligini alohida ta'kidladilar. Bu so'zlar har bir o'qituvchining, har bir ustozning ko'nglidan joy olgani, shubhasiz.

QO'SHALOQ BAYRAM

Bayram arafasida Toshkent viloyati xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan xalq ta'limi tizimida har tomonlama samarali mehnat qilib kelayotgan 55 nafar ustoz-murabbiylarga «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni, Xalq ta'limi boshqarmasining faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari topshirildi. Bu esa o'qituvchilar uchun qo'shaloq bayram bo'ldi.




Qalbi quvonchga to'lgan ustozlar orasida Angren shahridagi 41-umumta'lim maktabining ingliz tili o'qituvchisi Zilola Sirojiddinova ham bor:

– Bu mukofot bilan taqdirlanganimdan boshim osmonga yetdi, – deydi Zilola opangiz. – Bugun biz o'qituvchilar uchun eng yaxshi, eng go'zal tilaklar bildirildi. Bu so'zlardan ham ilhomlanib ketdim. Mehnatlarimiz munosib taqdirlanganidan barchamiz shodmiz. O'qituvchining birgina istagi, tilagi bor: u ham bo'lsa, shogirdlarining, o'zi o'qitgan o'quvchilarining kamolini ko'rishdir. Men ham o'z navbatida, barcha ustozlarimdan minnatdorman. Ularning sa'y-harakatlari bois, mana shunday muvaffaqiyatlarga erishdim.

Biz ham barcha o'qituvchilarni kasb bayramlari bilan qutlaymiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA



Kino tarixidagi eng mashhur komik aktyor Charli Chaplin shunday hikoya qiladi:

«Bolaligimda otam bilan sirk ko'rgani borgandik. Chipta olish uchun navbatga turdik. Oldimizda er-xotin va olti bolalik bir oila turardi. Kiyimlari eskirgan, lekin ozoda edi. Bolalar juda xursand, sirk haqida suhbatlashishar edi. Navbatlari kelgach, ota chipta sotish oynasi yoniga borib, chipta narxini so'radi. Chipta sotuvchi narxni aytgan edi, biroz o'ylanib, xotiniga pichirlab nimadir dedi. Yuzida bezovtalik alomatlari ko'rinib turardi.

Shu payt otam cho'ntagidan 20 dollarni olib yerga otdi va egilib uni oldi-da, pulni haligi kishining kaftiga qo'yib, «Pulingiz tushib

ketdi», dedi.

Haligi odam ko'zlarida yosh bilan samimiy ohangda, «Rahmat, janob», dedi.

Ular kirib ketganidan keyin otam qo'limdan tortdi va biz navbatdan chiqib ketdik. Chunki otamning o'sha odamga bergan 20 dollardan boshqa puli yo'q edi.

O'sha kundan buyon otam bilan faxrlanaman. Butun hayotimdagi eng go'zal manzara mana shu bo'lgandi. U o'sha ko'rolmay qolganim sirkdan ham chiroyliroq edi.

Tarbiya nazorat bilan emas, ibrat bilan bo'lishiga ishonch hosil qilgan edim»...

Internet manbalari asosida
N. NAZAROVA tayyorladi

FAQAT QIZLAR O'QISIN!

ORASTASIZ – FARISHTASIZ

Yoshlikning o'zi go'zallik. Yoshlikning o'zi nafosat. Yoshlikning o'zi salomatlik. Bu haqda kattalardan – buvilaringiz, onalaringiz, opalaringizdan ko'p eshitgansiz, albatta. Bu – haqiqat.

Tozalik – sihat-salomatlikning eng bir-lamchi sharti ekanini bilasiz. Ozodalik, orastalik, pokizalikni bir umr o'zingizga hamroh qilsangiz, ishonig – vaqti ke-lib, «Farishtalikkina qiz ekan», de-ganlarini eshita-siz. Negaki, hech bir narsa insonga ozodalik, orastalik, pokizalik kabi o'zi-ga ishonch va ruhiy muvozanat baxsh eta olmaydi. Parcha-yu kimxoblardan tikilgan libos kiyib, zeb-ziyat-lar taqib, bir davraga kirsangiz-u, birinchi tabassu-mingizda tishin-gizning sari-g'i ko'rin-sa, kishi-ning siz haqingiz-da fikri o'zga-radi. Ruhiy muvo-

zanatingiz buziladi. Eng so'nggi moda bilan kiyinsangiz-u, sochlaringiz to'zib yotgan bo'lsa, hech kim sizni orasta demaydi. Yana ruhiy muvozanat buziladi.

Qizlarning eng go'zali hayo va iffat pardasiga o'ralganidir.

Yangi kiyimlar, chiroyli liboslar kir badanni yashira olmaydi. Xuddi shunday yuzingiz-ga qancha oro bermang, tabiiy-likdan uzoq-la-sha-siz. Sez-dingizmi, orasta-lik, avvalo, sizning o'zin-gizga kerak. O'z

Pokligimiz – sog'ligimiz.

xonangizni, alohida xonangiz bo'lmasa, o'quv an-jomlaringiz qo'yilgan burchakning, o'zingiz yotib tura-digan o'rin-joyin-gizning ozodaligi sizning ne-chog'li orasta-ligingizni ko'rsatadi. Ularni birov ko'rmay-di-ku, dey-sizmi?! O'zingiz ko'rasiz! Ular ah-voli sizga sezilma-ga n hol-d a kay-fiya-tingiz, ruhiya-tingizga ta'sir qiladi!

Kitob-daftarlari-giz ahvoli, papka, hatto ruchka va qamlaringizning ah-

Ozoda hovli – kasaldan holi.

voli ham sizning qan-day qiz ekaningizni namoyon eta-di. Pay-poqlar, oyoq ki-yim-larin-gizni ozoda tutish haqida aytmasak ham bo'ladi. Bular haqida onan-giz ham ko'p gapir-dilarmi? U kishining

so'zlari, talablarini mayda-chuydaga o'chakishish deb qa-bul qilmang, Ona-da! Hozir ayrim kamchi-liklarni aytib o'tish bi-lan u sarishtasizlik, orastasizlik, pala-par-tishlik keyin hayot tarzingizga aylanib qolishidan qo'rqadi. Onalar hamisha o'z qizlari haqida: «Oras-tagina – farishtalik-kina», degan sifatni eshitishni istaydilar.

Xotin-qizlar ensiklopediyasidan



Dilnura XOLBOYEVA,
Toshkent shahri, Uchtepa tumanidagi 283-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi



BAXSHILARNING OVOZIDA JARANGLAR

Ona tilim, millatimning g'ururi,
Ham faxrisan, ertasi-yu shuuri.
Sen-la topdim dunyoda nurli bilim,
Kelajaging porloqdir, ona tilim.

Navoiyning qalamida anglagan,
Bobur bobom tillarida yangragan.
O'z o'rmingni bugun topgansan dilim,
Kelajaging porloqdir, ona tilim.

Ona tilim dunyodagi qaynoq til,
Ona tilim mehri misli buloq til.
Sen-la topdim shon-u shavkat va yo'lim,
Kelajaging porloqdir, ona tilim.

Baxshilarning ovozida jaranglar,
Alpomishning dostonida ming yillar.
Bugun yetdi osmonlarga hur qo'lim,
Kelajaging porloqdir, ona tilim.

*Dilafro'z O'ROQOVA,
Qarshi shahar, 38-umumta'lim
maktabining ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi*

MUALLIM

Hayot karvonimning aziz sarboni,
Nurli bu yo'limning siz chirog'boni.
Sizsiz bo'lmas edi umrim davroni,
Sizsiz tebranmaydi hayot karvoni.

Har bir o'quvchiga berdingiz bilim,
Hali-hamon orom olmaysiz tinim.
Doston-u qo'shiqlar aytar bu dilim,
Siz uchun kuylagay, aziz muallim.

Bergan ilmingiz ila shaxdam bu qadam,
Bayram ila qutlaydi Zarnigor shu dam.
Ta'rifingiz yozmoqqa ojiz bu qalam,
Mashhur dostonlar-u shu tuhfa she'r ham.

Hayot karvonimning aziz sarboni,
Nurli bu yo'limning siz chirog'boni...

*Zarnigor OQMAMATOVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi
42-«A» umumta'lim maktabi o'quvchisi*



RAHMAT DEYMIZ BIZ SIZGA

Bilim berasiz bizga,
Rahmat, deymiz biz sizga,
Kirib yuringiz yuzga,
Mehribonlar ustozlar,
Jonajonlar ustozlar!

Mehrli ko'zlaringiz,
Shirindir so'zlaringiz,
Yorug'dir yuzlaringiz,
Mehribonlar ustozlar,
Jonajonlar, ustozlar!

*Madina AZIZOVA,
Abdulla Qodiriy nomidagi
ijod maktabining o'quvchisi*



SIZNI YAXSHI KO'RAMIZ

Tunlarni tonglarga ulagan,
Darsida zo'r usul qo'llagan,
Bizlarni hayotga yo'llagan,
Ustoz, sizni yaxshi ko'ramiz!

Goh kuyib, goh yonib parvona,
Otaday ulug'siz, mehribon ona,
Siz bilan fayzlidir ushbu darsxona,
Ustoz, sizni yaxshi ko'ramiz!

Anvoyi chechaklar sizgadir,
Eng sara bezaklar sizgadir,
She'r, qo'shiq, tilaklar sizgadir,
Ustoz, sizni yaxshi ko'ramiz!

*Obidjon XUDOYOROV,
Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi
19-umumta'lim maktabining
ma'naviyat-ma'rifat ishlari bo'yicha
direktori o'rinbosari*



USTOZGA TA'ZIM

Inson intilarkan kamolot sari,
Suyanchiq istaydi hayot yo'lida.
Mukammallik tomon intilar bari,
Zo'r bir qudrat paydo bo'lar dilida.

Goho mushkul holda qolganda inson,
Bir zot bor yoritir umid yo'lini.
Mehr to'la qalbi, imoni bilan –
Beminnat uzatar yordam qo'lini.

Ha, bu zot, shubhasiz, ustozdir, ustoz,
U kirgan davraning fayzi o'zgacha.
Shogirdlar ulug'lab qilarlar e'zoz,
Qadim zamonlardan to bugungacha.

Shiddat ila olg'a intilgan dunyo –
Sizning yelkangizga ortgandir zo'r yuk.
Yukki, ishonilgan nurli kelajak,
Barcha yuklar ichra zalvorli buyuk.

Mehringiz taftidan bugun shogirdlar,
Misoli nihoday ko'kka cho'zar bo'y.
Ammo sizni doim tashvishga solar:
«Ishonchim oqlarmi?», degan ezgu o'y.

Bugun sizga hurmat bajo keltirib,
Shogirdlar ta'zim-la qovushtirar qo'l.
Chunki hayotlarin yoritib turar,
Mehr, ishonch bilan siz ko'rsatgan yo'l.

*Maryamjon ISMAILOVA,
Xorazm viloyati, Xiva tumanidagi
37-umumta'lim maktabining ona tili va
adabiyot o'qituvchisi*

BIR DO'STIM

Bir do'st qidirib,
Maktabga chopdim.
Mehribon do'stdan,
Baraka topdim.

Uning bilan men,
Hech zerikmayman.
Dono suhbatini,
Yo'l-yo'riq deyman.

So'zlar hikoya,
G'aroyib ertak.
Murg'ak qalbmida,
Ochadi kurtak.

Ustozdek hayot,
Darsin o'rgatar.
Ko'ngil bog'iga,
Yo'lni ko'rsatar.

Suhbatidan men,
Yetdim murodga.
Tanishtirdim do'st,
Sultonmurodga.

Nur kabi uning,
Mehri behisob.
U hozirjavob,
Do'stga do'st – KITOB!

Anvar MIRZAZODA



OQDARYONING QIZIMAN

Men yurtim erkasiman,
Vatanim ertasiman.
Shoiralar izidan,
Borayotgan qiziman.

Sevimli farzandiman,
Ona yurt dilbandiman.
Faxrlansam yarashar,
Ipak tola yuziman.

Ruxshona ismim meni,
Zulfiyaning qiziman.
Havasim ortib borar,
Oqdaryoning qiziman.

*Ruxshona AHMADJONOVA,
Samarqand viloyati,
Oqdaryo tumanidagi
32-umumta'lim maktabi
o'quvchisi*

Haqiqiy xo'rozlar mangu yashaydi.

(Ra'no buvim hikmatlaridan).

Xo'rozlar boshini engashtirib yurganini ko'rganmisiz? Yo'q. Ular doimo viqor bilan, salobat to'kib mag'rur yurishadi. Chunki ular xo'roz-da!

(Zoologiya o'qituvchimiz Mir-mahmud akaning darsdagi bayoni).

Dunyo bo'yicha xo'rozlarning turi ko'p. Shunday bo'lsa-da, ular bitta turkumga, ya'ni xo'rozlar turkumiga kiradi. Ular xo'roz bo'lib tug'ilgan va xo'roz bo'lib o'ladi!

(Matmusa tog'amning «Esda-lik»laridan).

SO'ZBOSHI

Bu safar sizlarga aytib bermoqchi bo'lgan hikoyam shunchalar haqqoniyki, bo'lib o'tgan va o'zim ko'rgan mazkur voqealarga bir satr qo'shsam hikoyam suyuladi, olib tashlasam ma'nosi buziladi. Shu sababli ham uni qanday bo'lsa shundayligicha yozishga qaror qildim. «Tabiatga va jonzotlarga mehr bolalikdan uyg'onadi», deydi fizkultura o'qituvchimiz Shodiyor aka. Shuning uchun men yoshligimdan turli xil qushlarni boqaman. Ko'pchilik meni «Qush jinnisi», deydi. Aslida, bu juda noto'g'ri fikr. Chunki ular qush tilini tushunmaydi. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy ham bekorga «Qush tili»ni o'qimagani bo'lsalar kerak. Qushlar va parrandalar, umuman, hayvonlar odamlar mehrini yaxshi tushunadi va ularga sadoqat bilan xizmat qiladi. Odamlar ham ularga mehr ko'rsatsa, ularni asrab-avaylasa, yaxshi bo'lardi. Albatta, bu mening shaxsiy fikrim. Xohlang qo'shiling, xohlang yo'q. Ammo bolalaringizni tabiatga bo'lgan mehrini uyg'oting...

TUPROQ-QO'RG'ON

Nihoyat, Ra'no buvimning dadamga aytgan talablari amalga oshadigan bo'ldi. Dadam bilan chorshanba kuni mol bozoriga borib, tovuq oladigan bo'ldik. Kun ham fe'limizga yarasha ochiq. Mayingina shabada esib turibdi. Yoz havosi bundan ortiq yana qanaqa ham bo'lardi. Ha, aytganicha, tovuq bozor mol bozorining ichida joylashganini bilmaysiz-a, mana, bilib ham olganingiz yaxshi bo'ldi. Yana shuni ham aytib qo'yishim kerakki, dadamning bir qarorga kelishi qiyin. Keldimi, uni, albatta, amalga oshiradi.

Aslini olganda, mol bozori uyimizdan unchalik uzoq emas, lekin yaqin ham emas. Yayov borsak ham bo'ladi. Odamlar piyoda dunyoni aylanib chiqayotganda, mol bozoriga borish nima degan gap... Qishlog'imizdagi mol bozorni ko'rmabsiz, bu dunyo-

ga kelmabsiz. Bozor, to'g'risini aytganda, tuproqdan ko'tarilgan (tuproqni shibbalab) qadimiy qo'rg'onda joylashgan. Odamlar uni Tuproqqo'rg'on deyishadi. Devorlari juda baland bo'lib, odam u yoqda tursin, qush ham uchib kirolmaydi. Bu aslida, arxeologik yodgorlik bo'lib, ashula o'qituvchimiz Madumar akaning so'zlariga qaraganda, miloddan avvalgi ... asrda qurilgan ekan. Undan qishloq ahlini dushmanlardan himoya qilishda foydalanilgan. To'g'risini aytganda, qishlog'imizda bunday tarixiy obidalar juda ko'pligi sababli, ular navbati bilan

miy, ham zamonaviy. Qadimiyligi shundaki, arava ko'rinishidan eski davr kinolaridagi aravani eslatadi. Ko'rinishi qora, usti yopiq, old tomonida ikkita fonar bor, zamonaviyligi arava tomi ustiga quyosh batareyasi o'rnatilgan. Arava ichi elektrlashtirilgan. Televizordan tortib, kichkina sovutkich va choy qaynatadigan tefalgacha bor. Arava derazalari pult yordamida ochib-yopiladi. Qandil ham shunday. Aravaning poli tarketli. Uning ostiga akkumulyator o'rnatilgan. O'rindiqlar yumshoq mebeldan. Qizig'i, aravaning old o'rindig'i ikki kishiga mo'ljallangan bo'lib,

– To'raqishloq bozorini rosa maqtashadi, – dedi Tamtumbov IV kelishi sababini tushuntirib. Dadamga aytuvdim. Yalqovboy tog'aning aeroplanida tashlab ketdilar.

– Unda tog'am qanilar?

– Dadam opalarini ko'rgani sizlarnikiga ketdilar.

– Yaxshi bo'пти, – dedim xursand bo'lib, – buvim ham ikki-uch kundan beri ukalarini sog'inib o'tiruvdilar.

YOSHLIKDAGI MUHABBAT

Bozorga yetib kelganimizda, quyosh erinibgina yotog'idan boshini ko'targan ekan. Tovuq bozori mol bozorining shimoli-sharqida joylashgan bo'lib, bu yerda turli-tuman kaptarlar-u ajoyib va g'aroyib to'tilar hamda boshqa qushlar sotiladi. Normamat tog'a aravamobilini maxsus qoziqqa boyladi-da, yo'l boshladi. Tovuq bozorini gir aylanib chiqsak-da, durustroq tovuq topilmasdi. Endi nima qilsak ekan, deb turuvdik, birdaniga Normamat tog'aning ko'zi bir chekkada katta latta qop ushlab turgan o'rta bo'yli, xushro'ygina, yoshi bir joyga borgan kampirga tushdi. Normamat tog'a uzoq tikilib turdi-da, birdaniga:

– Mohigul, – deya qichqirib yubordi. Kampir indamadi. Normamat tog'a peshonasiga bir urdi-da:

– Mohichehra, – dedi yana kampirga qarab. Kampir qayrilib ham qaramadi.

– Normamat tog'a krossvord yechyaptilarmi? – dedi Matrayim. Indamadim. Chunki Normamat tog'aning biroz jahli chiqib turgandi. Normamat tog'a qizarib ketdi-da, boshidagi do'ppisini yechib, kaftiga bir urdi va g'alati ohangda:

– Mohipari, – dedi. Kampir yalt etib Normamat tog'aga qaradi. Kampirning ajin bosgan yuzlari birdaniga qizarib yuzi oydek yorishdi.

– Hartugur, ismimni to'g'ri aytding, Normamat. Yoshligingda ham otimni noto'g'ri aytarding.


– Obbo' seni-ey, – dedi Normamat tog'a zavqlanib. – Taniding-a, Mohipari!

– Seni tanimay o'libmanmi?! Yoshligingda ham qitmir eding. Bozorga kirganingdan beri kuzatib turuvdim, yonimga kelarmikansan, deb.

– Meni kelishimni kutdingmi, pari? – Normamat tog'aning iltijoli gapidan keyin kampir negadir ko'z yoshlarini tiyib turolmadi...

U bizdan uyilib, cho'ntagidan chiroyli dastro'molchasini oldi-da, yuzlarini arta turib, – nimagadir ko'zim yoshlanadigan bo'lib qolgan, – dedi.

(Davomi bor)



BIBIQJONNING JASORATI

ta'mirlanmoqda (izoh geografiya o'qituvchimiz Shodmon akaniki). Darvozasi esa oddiy. Zamonaviy shlagbaum. Ko'tariladi, tushiriladi. Avtomatik ravishda. Albatta, mol bozorga kirish haqini to'laganingizdan keyin. Dadam bilan kallai sahardan ko'chaga chiqsak, eshigimiz tagida Normamat tog'a eshak aravasida turibdi.

– Bozorgami? – dedi Normamat tog'a quvonib.

– Ha, uch-to'rtta tovuq olmoqchiydik, – dedi dadam muloyim ohangda.

– O'tirila. Qani, ketdik.

Men Normamat tog'a buni qayerdan bildi, deb o'ylamaydigan bo'lganman. Qishloqchilik. Kechqurun uyingizda bo'lgan gap yaxshigina ko'pirgan holatda ertalab o'zingizga yetib keladi. Shu sababli, dadam oyim bilan imo-ishora bilan gaplashadigan bo'lib qolgan. Eng qizig'i, dadam imo-ishorasini tugatgandan so'ng Shotursun aka doskani o'chirgandek havoni kafti bilan o'chiradi. Hech kim o'qib olmasin, deb shunday qilsalar kerak-da.

ARAVAMOBIL

Normamat tog'aning qayta ta'mirlangan aravasi ham qadi-

eshakni savalaydigan maxsus xivchin bor. Yana ham qizig'i, aravaga rul ham o'rnatilgan. Kerak paytda boshqaruv pultini o'rnatib, aravamobil sifatida foydalanish mumkin. Aravamobilning 8 ta g'ildiragi bor. G'ildiraklari ingichka, velosipednikiga o'xshash. Oyna artadiganini aytmamam ham bo'laveradi. Cho'tkasi tufli artadigan cho'tka.

Aravamobil yagona nusxada tayyorlangan. Uni Yalqovboy aka Normamat tog'aning tug'ilgan kuniga sovg'a qilgan. Shu kuni Normamat tog'aning xotini: – Eshagimiz aravasiz qoladimi? Aravasiz eshak bo'ladimi? – deb rosa kuyingan ekan. Shunda Normamat tog'a aravani o'zining tili bilan aytganda «rekonstruksiya» qilgan va unga xivchin o'rnatgan. Shu bilan janjalga nuqta qo'yilgan.

Normamat tog'a dadamga iltifot ko'rsatib, «Sen meni yonimda hamroh bo'lib gaplashib ketasan, o'g'ling arava ichida multfilm ko'rib ketaveradi», dedi. Dadam bu taklifga jon deb rozi bo'ldi. Endi aravamobilga chiqmoqchi bo'lib turuvdim, qayerdandir Matrayim bilan Tamtumbov kelib qoldi.

– Bozorga ketayotganingni eshitib kelaverdik, – dedi odatdagidek tirjayib Matrayim.



1. Ilk teleskop qaysi golland ustasi tomonidan yaratilgan?

- A) Nikolay Kopernik;
B) Xans Lippersgey;
D) Ptolomey.

2. Dastlabki teleskop nechanchi yilda kashf qilingan?

- A) 1608-yil;
B) 1960-yil;
D) 1970-yil.

3. Telefon orqali ilk suhbat nechanchi yilda amalga oshirilgan?

- A) 1874-yil;
B) 1875-yil;
D) 1876-yil.

4. O'zbek milliy akademik drama teatrining tashkil topgan yilini bilasizmi?

- A) 1913-yil;
B) 1950-yil;
D) 1976-yil.

5. Foydali bakteriyalardan tarkib topgan yogurd kim tomonidan kashf qilingan?

- A) Isaak Karaso;
B) Ilya Mechnikov;
D) Yefim Nikonov.

BILASIZMI?..

Ilk ko'zoynak Salvino del Armati tomonidan 1280-yilda ishlab chiqarilgan bo'lib, ular buyumlarni kattalashtirib, yanada aniqroq ko'rsatishi uchun ikki qavariq shishali linzalardan iborat bo'lgan. Linzalar aylana ko'rinishiga keltirilib, maxsus doiralar ichiga joylashtirilgan. Maqsad, linzalarni shikastlantirmaslik va uzoq muddat xizmat qilishiga erishish bo'lgan. Ilk ko'zoynaklar bir oynali, uzun dastakli bo'lgan.

Keyin esa katta, ikki qavat shishali binokl yaratilgan. Binoklni faqat burun ustiga qo'yish mumkin bo'lgan. Vaqtlar o'tib, quloq orqali taqildigan ko'zoynaklar yaratilgan. Leonardo da Vinchi kontakt linzalar orqali ko'zlarning ko'rish

qobiliyatini oshirish g'oyasi muallifidir. XVIII asrga kelib kontaktli linzalar amalda sinab ko'rilgan. Ayni paytda ishlab chiqarilayotgan ko'zoynaklar ko'zlarning ko'rish qobiliyatini oshiribgina qolmay, ularni quyoshdan himoya ham qiladi. Olimlarning izlanishlari natijasida ko'zoynaklarga maxsus kameralar o'rnatilib, kino, multfilm-lar tomosha qilish, turli o'yinlar o'ynash mumkin bo'ldi va hatto maxsus harakatlanuvchi o'rindiq ham yaratilgan.



Zuhra NISHONOVA tayyorladi

BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

«M-M» - TOPQIRLIK MASHQLARI

Eniga: 1. Astronom atamasining mumtoz adabiyotdagi nomi. 2. Oldin, ilgari so'zlari ma'nodoshi. 3. Hurmatli, aziz ma'nosidagi ayollar ismi. 4. Ulug'vor va serhasham maskan. 5. Qamariya yil hisobidagi birinchi oyning nomi. 6. Musiqa asari ijrosi surati aniqligini o'lchash asbobi. 7. Surat chizish asbobi. 8. Tartibli ravishda uzluksiz davom etadigan holat. 9. Mashina, asboblarning ichki, ishga soluvchi qismlari.

Topshiriq: Shaklning o'ninchi qatoridagi raqamlar juftini (birinchisi so'z, ikkinchisi harfni anglatadi) yuqoridagi javoblardagi harflar bilan almash-tirish bilan topshiriq-ni hal eting. Bunda Nodira, Maknuna va Komila taxalluslari bilan ijod qilgan mumtoz shoiraning asl ismi ayon bo'ladi.

Tuzuvchi:
Foziljon ORIPOV

1									
2									
3									
4									
5									
6									
7									
8									
9									
10									
	6/5	4/3	7/6	1/4	3/6	6/7	7/3	9/6	

Qadim o'tgan zamonda, Kattaqo'rg'on tomonda bir badavlat podshoh bo'lgan ekan. Uning yakka-yu yagona aqlli, zukko, husn-u latofatda tengi yo'q qizi betob bo'lib, tildan qolibdi. Podshoh o'z mamlakatidagi tabib zoti borki, chaqirib qizini ko'rsatibdi. Ammo malika tuzalmabdi, tildan qolibdi. U kundan kunga guldek so'lib boribdi. Ko'ngliga hech narsa sig'mas ekan. Buni ko'rgan podshoh tashvishga tushib, donishmand vazirlarini chaqirib maslahat qilibdi. «Kimda-kim mening qizimni davolasa, tilga kiritsa, kuldirsa, unga mol-u dunyoimning teng yarmini beraman, bir sandiq zeb-u ziynat, oltin sovg'a qilaman», debdi. Mamlakatning to'rt tomoniga jarchilarni yuborib, bu xabarni yetkazibdi. Saroyga birin-ketin tabiblar, qiziqchilar, dorbozlar, askiyachilar kelib, o'z hunarlarini ko'rsatishibdi. Ammo ularning hech biri malikani davolay olmabdi, xushnud qilolmabdi, malika gapirmabdi. Podshoh butkul chorasiz qolibdi, keyin esa opasi Bibixonimdan yordam so'rabdi. Bibixonim dunyodagi eng xushbo'y, chiroyli gullarni keltirtiribdi. Gullar ham malikani shod qilmabdi. Keyin dilni yayratuvchi sho'x soz-u maqom bilan raqqosalar raqslar ijro qilishibdi. Raqqosalar «Mustahzod»ga xiron aylashganda, malikaning biroz kayfiyati ko'tarilib, yuzida tabassum, labida kulgu paydo bo'libdi, lekin gapirmabdi. Shoirlar she'r o'qishibdi, malika she'rlarni diqqat bilan tinglabdi, yuragi ezilib yig'labdi, biroq gapirmabdi.

Shunda saroyga tengsiz aql-zakovat

sohibasi bo'lgan Muazzamxon kirib kelibdi va podshoh saroyiga barcha aqlli, bilimdon, zukko qizlarni to'plashni aytilibdi. Malikani ham shu qizlar qatoriga qo'shib qo'yishini



BILIM BAXT-SAODAT KELTIRAR

(Ertak)

iltimos qilibdi. Muazzamxon barcha qizlarga topishmoqlar (chistonlar) aytibdi: **Shu ko'chaning boshida, Tilla egar qoshida, Buni topgan kishilar, Yuz yigirma yoshida. (Aql)**

Malika zukkoligi ichiga sig'may hammadan oldin aytishga shoshilib, topdim, topdim, bu «Aql», deb yuboribdi. Hamma hayratda qolibdi. Muazzamxon yana davom etibdi: **Yugurgandan o'tadi, Bir vaqtda yetadi, O'q emas, otiladi, Qush emas, uchadi. (Fikr)**

Malika yana birinchi bo'lib topishmoqning

javobini to'g'ri topibdi, «Fikr» debdi. Muazzamxon oxirgi topishmoqni ham aytibdi:

Temir qo'rg'on ichida, Qizil toychoq o'ynaydi. Gulzor chaman ichida, Bulbul bo'lib sayraydi. (Til)

Malika: «Men topdim, topishmoqning javobi «Til» debdi va o'rnidan turib, qarsak chalib, xursandligidan ichiga sig'may, bidirlab gapira ketibdi.

Dilidagi tiliga chiqib, tengdoshlari orasida qalbi quvnab, shod-u hurramp bo'libdi va shu kundan boshlab tilga kiribdi. Podshoh esa va'da qilgan zeb-u ziynatlari, tillolarini Muazzamxonga hadya qilibdi.

Bilim baxt-saodat keltirar, Bilim ma'rifat sirin ochar. Bilim insonlarga yo'l ochar, Quyosh yanglig' ziyo, nur sochar.



Nilufar NARBAYEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumanidagi 51-umumta'lim maktabining 10-«A» sinf o'quvchisi



ARI CHAQIB OLGANDA...

Yoz kunlarining birida tashqarida o'ynab yurgan edik. Birdan dugonam Sabining qattiq qichqirganini eshitib qoldim. Hammamiz uning yoniga yugurib bordik. Uni kattakon ari chaqib olgan ekan. Hammamiz unga yordamga shoshildik. Shunda oyijonimning «Agar ari chaqsa, darrov loy surish kerak», degan gaplari yodimga tushib qoldi. Ko'mko'k o'tlarni sug'orib turgan mitti favvoraning tagidan ozgina loy oldim-u, darrov jarohat joyiga bosdim. Og'riq sal to'xtadi, shekilli Sabina jim bo'lib qoldi. Ammo ari chaqqan joyi kattakon bo'lib shisha boshladi. Shunda uni uyiga olib bordik. Uni yig'laganini

ko'rgan oyisi qo'rqib ketdi va nima bo'lganini bizdan so'radi. Men bo'lgan voqeani aytib berdim. Shunda dugonamning oyisi: «Rahmat, qizim, sen birinchi

yordamni ko'rsatibsan. Bo'lmasa, dugonangning ahvoli yomonlashardi», dedi. Men juda xursand bo'lib ketdim. Uyga kelgach, bo'lgan voqeani oyijonimga aytib berdim. Qilgan ishimdan ular ham mamnun bo'ldilar. Keyin esa internetga kirib ari chaqqanda ko'rsatiladigan birinchi yordamning bir nechta tavsiyalarni o'qidim. Ularni o'rtoqlarim bilan bo'lishgim keldi. O'ylaymanki, bu ma'lumotlar do'stlarimga vaqti kelib, asqotadi.

*Ari chaqqanda jarohatda nishini qoldirmaydi va u bir necha martagacha chaqishi mumkin. Takroriy chaqishlarda zahar miqdori

kamayadi, lekin allergik reaksiya paydo bo'lishi uchun shuning o'zi yetarli; *Nish jarohatda qolgan bo'lsa, uni olish kerak bo'ladi, buning uchun

pinsetdan foydalaning; *Jarohat joyiga vodorod peroksidini quyung, shishning pasayishi uchun muz qo'ying;


Bu muhim: ari chaqishi natijasida allergiyaga moyil kishilar o'z yonlarida adrenalini shprits va gormonal surtma olib yurishlari kerak. Ari chaqishi bilan allergiyaga moyil kishiga adrenalin inyeksiyasini yo'llash kerak – bu bilan siz allergiyaning rivojlanishini ogohlantirasiz va bir inson hayotini saqlab qolasiz.

Madina SIROJIDDINOVA,
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 59-DIUMning 6-«F» sinf o'quvchisi

FOYDALI MASLAHATLAR

To'yimliliigi va ta'mini saqlab qolish uchun loviya qaynab chiqqanidan keyin suvini to'kib yana boshqa suv va o'simlik yog'i solib qaynating.

Baliq bo'laklari yoyilib ketmasligi uchun qovurishdan oldin tuz seping, unga yaxshilab belab oling va qizigan yog'ga soling.



Archilgan olmalar qoraymasin desangiz, ularni tuzli sovuq suvga solib qo'ying.

Ko'pchigan xamir yanada oshib ketmasligi uchun qog'ozni ho'llab silkitib tashlang va xamirni o'rab qo'ying.

Qayladagi qaymoq yumaloqlanib qolmasin desangiz, ishlatishdan oldin uni ozroq sut solib suyultiring.

Oldindan sovitilgan tuxum oqi yaxshi ko'piradi. Sarig'ini esa ishlatishdan oldin sal isitib oling.

Limon kislotasi guruchni oppoq va dona-dona qiladi.

NARGIZA tayyorladi

**Hayotga boqing.
Naqadar go'zal-a!?
Ana shu go'zal va
sirli hayot man-
zaralarini qalb
bo'yoqlari bilan
qog'ozga ko'chira-
yotgan iste'dod
egasi Mehriniso
Mamarasulova
Farg'ona viloya-
ti, Qo'qon shahar
ixtisoslashtirilgan
san'at makta-
bining Lakli minia-
tyura yo'nalishi
o'quvchisi.**



MEHRINISONING MAHORATI

Mehriniso Mamarasulova O'zbekiston tumanida o'tkazilgan «Men tanlagan ijodiy ish–2017» tanlovida 1-o'rinni egallagan. Rossiya Federatsiyasining Sochi shahrida 2018-yil o'tkazilgan xalqaro «Salyut talantov» ijodiy festivalida tasviriy san'at va grafika hamda «Eng yaxshi rassomlik ishi»

yo'nalishlarida 2 marotaba g'oliblikni qo'lga kiritgani uchun 1-darajali diplom va kuboklar bilan taqdirlangan. 2019-yilda Farg'ona viloyati Madaniyat boshqarmasi «Badiiy ijodkorlar uyushmasi» tomonidan tashkil etilgan «Vatan – mening nigohimda» nomli ijodiy ko'rgazmada o'z asarlari bilan faol ishtirok etganligi

uchun Farg'ona viloyati Madaniyat boshqarmasi boshlig'i tomonidan diplom bilan taqdirlangan. O'zbekiston tumani Xotin-qizlar qo'mitasi raisi Mahmudaxon Kamolova rassom qiz haqida shunday deydi: «O'zining yuksak iqtidori va iste'dodi, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, intiluvchanligi bilan tengdoshlariga

shaxsiy namuna ko'rsata olganligi hamda qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolliklarini oshirishdagi faolligi tahsin-ga loyiqdir».

– Bu soha insondan birinchi navbatda o'ta sinchiklikni talab qiladi. Masalan, tabiat qo'ynidami, uydami ko'zingiz ko'rib turgan har bir narsaga sinchiklab qaray-

siz va undan o'zingizga kerakli nimanidir topib, tasavvuringizda uni ming xil ko'rinishda chizasiz, so'ng esa oppoq qog'ozga ko'chirib, boshqalarga taqdim etasiz. Har doim zimmangizda mas'uliyat hissi turadi. O'sha taqdim etgan rasm boshqalarda taassurot uyg'ota olsa, chizgan rasmimdan ko'nglim to'ladi», – deydi Mehriniso.

Rassom qiz nafaqat rasm chizish, munchoqlar yasash, balki tumanda bo'lib o'tadigan insholar tanlovida ham faollik ko'rsatadi. Mehriniso o'qishdan tashqari bog'idagi gullarini parvarish qilmoqda. Uning eng yuksak orzusi Vatanimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish. Bu borada Mehrinisoga ijodiy barkamollik tilaymiz. Quyida uning chizgan rasmlaridan namunalari ko'rishingiz mumkin.

**Muhtaram HASANOVA,
Farg'ona viloyati,
O'zbekiston tumanidagi
68-umumta'lim maktabi
o'quvchisi**

RANGLAR JILOSISI



**Mehriniso MAMARASULOVA,
Farg'ona viloyati, Qo'qon
shahar ixtisoslashtirilgan san'at
maktabining Lakli miniatyura
yo'nalishi 11-sinf o'quvchisi**

BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70



Muassis:

**O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi**

**Bosh muharrir
Feruz ADILOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:

Dilshod KENJAYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir

Nodira
NAZAROVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul. Manzilimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198. www.tongyulduzi.uz e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz telegram: t.me/tongyulduz Adadi - 1677 Buyurtma - V 4347

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqti - 18:00 Topshirildi - 18:00 Tel. /faks: (99871) 244-63-08